

KULOLCHILIK LEKSIKASI TILSHUNOSLIKNING TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Mamatkulova Zilola Rejabaliyevna
Far DU akademik litseyi o'qituvchisi
Zilolamsmqulova 1988@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kasb-hunar leksikasi haqidagi nazariy qarashlar, termin va leksemasining tilshunoslik lug'atlaridagi izohi va tadqiqotlardagi sharhlari izohlab o'tilgan. Kulolchilik kasb hunar leksikasiga oid birliklar tahlil etilgan. Kasb-hunar leksikasining asosiy begilari ochib berilgan.*

Abstract: *In this article, the theoretical views on the professional lexicon, the explanation of the term and lexeme in the linguistic dictionaries and the comments in the studies are explained. The units related to the professional lexicon of pottery are analyzed. The main features of the professional lexicon are revealed.*

Kalit so'zlar: *Kasb-hunar leksikasi, kasb leksemasi, termin leksemasi, kulolchilik kasb-hunar leksikasi, differensial va integral belgilar.*

Keywords: *Vocational lexicon, occupational lexeme, term lexeme, ceramic vocational lexicon, differential and integral symbols.*

Bugungi kun o'zbek tilshunosligida kasb-hunar sohalari doirasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ammo kulolchilik sohasiga oid birliklar monografik planda o'rganilmagan. Mazkur sohada ilk ilmiy izlanishlar olib borgan tilshunos olim, sohaviy o'zbek terminologiyasining asoschisi S.Ibrohimovdir¹. Olim o'z tadqiqotlarida xalq tomonidan asrlar mobaynida yaratilgan boy terminologiyaning qonuniyatlarini o'rganmay turib, bunday nazariy masalalarni maqsadga muvofiq hal etib bo'lmasligini qayd etadi. U Farg'ona shevalari uchun xos bo'lgan kasb-hunar leksikasining tadqiqi davomida degrezlar va rixgardlar leksikasi, metallsozlik leksikasiga xos birliklarni o'rganadi. Jumladan, ipakchilar, tandirchilar, shuvoqchilar, kulollar, degrezlar, rixtgarlar, metallsozlar, temirchilar, qulfsozlar, ignachilar, pichoqchilar, chilangarlar, taqachilar, na'lgarlar, misgarlar, anjomsozlar, mixgarlar, zanjirsozlar, naqqoshlar, zargarlar, miynoglarlar, savatgarlar, gahchilar leksikasiga oid 2500 ga yaqin leksik birliklarni lingvistik aspekda tahlil qiladi. Olimning ilmiy

¹ Иброхимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. II-III-жилд. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1959.- 329 б.

asarlari bugungi kun o'zbek tilshunosligida kasb-hunar sohalariga oid ilmiy tadqiqotlarning yaratilishida metodologik asos sifatida xizmat qilmoqda.

Olimning izlanishlari natijasi o'laroq, kasb-hunar leksikasiga oid ko'p miqdordagi birliklar to'plandi. U o'z tadqiqotining 1-qismida Farg'ona shevasidagi kasb-hunar leksikasiga doir birliklarni tahlil qilgan. Tadqiqot hunarmandlarning asosiy xomashyosi bo'lgan loy va unga ishlov beruvchi kasb tarmoqlari: kulolchilik, tandirchilik va suvoqchilik sohalariga bag'ishlangan. Muallif O'zbekiston hududidan topilgan kulolchilikka oid madaniy yodgorliklar va arxeologik qazilmalar, shuningdek, qaysi hududda kulolchilik rivojlanganligi haqida hamda usta kulollar, ularning shajaralari haqida ham qimmatli ma'lumotlar berib o'tgan. S.Ibrohimov o'z tadqiqotlarida, asosan kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarish texnikasi, nomlari va yana ularning ishlab chiqarilish jarayoniga to'xtalib o'tgan. Olimning buyuk xizmatlari shundaki, kulolchilik sohasida qo'llangan katta hajmdagi birliklarni to'plaganligidadir. "Kulolchilik – keramika san'atining loydan kishilarning moddiy-maishiy hayotlari uchun zarur bo'lgan asboblardir, ya'ni har xil ro'zg'or idish-oyoqlari va dekorativ buyumlar ishlab chiqaruvchi keng bir sohadir. Bu kasb xalqning moddiy madaniy tarixida ancha katta o'rin tutadi. Kulolchilikning o'ziga xos xomashyosi, mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish-texnologik protsessi va rang-barang mahsulot turlari borki, kulollar leksikasi kulolchilikning ana shu spetsifikalarini o'zida aks ettiradi"².

S.Ibrohimov kulolchilik bo'yicha izlanishlar olib borar ekan, Farg'ona vodiysida bu sohada uzoq yillar ishlagan, tajriba orttirgan, kulolchilik ravnaqining rivojiga hissa qo'shgan usta kulollar ko'pligini ta'kidlab, tuproq tanlash jarayonidan tortib, mahsulot tayyor bo'lguniga qadar barcha bosqichlarni yoritadi³. Olim o'z tadqiqotlarida Farg'ona vodiysining nafaqat Rishton tumanida, balki Koson, Axxi, O'zgand, O'sh, Marg'ilon, Konibodom, Xo'jand, O'ratepada bo'lib, kulollarning ish namunalari, ish jarayonlari bilan tanishib chiqadi va bu jarayonda qo'llangan sohaga oid 100 ga yaqin birliklarni yig'ib, ularning lug'aviy ma'nolari va, o'rni kelganda, etimologik jihatlarini ham tadqiq etadi. U o'zbek hunarmandlari tomonidan qo'llagan professional so'zlarni qisman termin, so'z-termin, ko'proq kasb-hunar leksikasi deb ataydi⁴. Ayrim

² Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. I-жилд. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1956. – Б. 7.

³ Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. I-жилд. – Тошкент: ЎзФА нашриёти 1956. – Б. 20-43.

⁴ Усманов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968. – Б. 14.

tadqiqotlarda termin va kasb-hunar leksikasining farqli va o'xshash belgilari yoritiladi. Jumladan, "...termin va kasb-hunar leksikasi integral belgilari bilan bir umumiylikka birlashsa, differensial belgilari bilan alohida xususiyliklarni tashkil qiladi. Ularning integral belgilari quyidagilar bilan xarakterlanadi: har ikkalasi ham maxsuslashtirilgan leksika tarkibiga kiradi, so'z yoki so'z birikmasi tuzilishida shakllanadi, ma'lum ilm-fan sohasi, kasb-hunar doirasida monosemiklikka intilish tendensiyasiga ega, ilmiy yoki ishlab chiqarish sohasida predmet, hodisani aniq ifodalash uchun xizmat qiladi"⁵. Rishton kulolchiligiga oid birliklarni tahlil etar ekanmiz, yuqoridagi termin va sohaviy birliklarga oid olimlarning ilmiy qarashlariga tayangan holda kasb-hunar leksikasi jumlasini qo'llashni joiz topdik.

S.Ibrohimov ilmiy izlanishlarida asosiy e'tiborni kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarish jarayoniga qaratgan. Kulolchilik leksikasining lisoniy tahlilidan biroz chetlashgan. Jarayonda qo'llangan kulolchilikka oid birliklarni o'rni bilan sharhlab, ba'zi o'rinlarda ularning qaysi tildan o'zlashganligi, shevadagi variantlari, agar bu termin yasama bo'lsa, morfem tarkibi haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tgan. Masalan, *Kosa* –(F.) bir kishi ovqat yeydigan idish. Bu so'zni Andijon, O'sh, Shahrixonda *ka:sa:*, Qo'qon, Marg'ilon, Farg'ona, Rishton hududlarida yashovchi aholi esa *ko:sa:* shaklida talaffuz etadi⁶. Olim kulolchilik jarayoniga oid leksik birliklarni o'rganish bilan birga, sopol idish nomlari va turlarining ham leksik xususiyatlarini tahlil qiladi. Loydan yasaladigan idishlardan: *kosa*, *lagan*, *charxi*, *xurma*, *xum*, *ko'za* va ular qay maqsadda ishlatilganligi haqida ma'lumotlar beradi. Olimning tadqiqotida yoritilmagan jihatlarni, jumladan, kulolchilik leksikasini tematik tasnif qilish, morfologik, leksik-semantik xususiyatlarini tahlil etish, kulolchilikka oid birliklar o'rtasidagi paradigmatic munosabatlarni aniqlash, leksemalarning nomlanish tamoyillari, ularning struktur jihatlarni tadqiq etish muhim masala hisoblanadi.

O'zbek tili terminologik tizimida olib borilgan ishlarda terminlarning lisoniy xususiyatlari o'rganilgan bo'lsa-da, biroq bu borada, o'z yechimini kutayotgan masalalar ham mavjud. Xususan, kasb-hunar leksikasi tarkibida kulolchilikka oid birliklarning lingvistik xususiyatlari, leksik-semantik paradigmaları o'rganilmagan. "Har qanday fanni o'rganish, o'zlashtirish uchun uning alifbosidan – terminologiyasidan

⁵ Жамолитдинова Д. Бадийий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Фарғона, 2021. – Б. 49-50.

⁶ Иброхимов С. Фарғона шевалярининг касб-хунар лексикаси. I-жилд. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1956. – Б. 74.

xabardorlik zarur bo'ladi. Ma'lumki, fanning asosiy katta-kichik tushunchalari bevosita terminlar orqali ifodalanadi, terminlar har qanday fan tilining asosini tashkil etadi"⁷. Shuning uchun tilimizda asrlar davomida paydo bo'lgan va sayqallanib borayotgan leksik birliklarni o'rganish hamda lisoniy meros sifatida ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim sanaladi. Shuningdek, o'zbek xalqining kundalik turmush tarzida faol qo'llanuvchi kulolchilik leksikasini keng qamrovli o'rganish, bu sohada qo'llanuvchi 500 ga yaqin terminlarning o'ziga xos lingvistik belgilari va funksional-uslubiy jihatlarini Rishton kulolchilik kasb-hunar leksikasi nomi ostida tahlil etish o'zbek tilshunosligining terminologiya sohasi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. I-жилд. – Тошкент: ЎзФА нашриёти 1956.
2. Усманов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968. – Б. 14.
3. Жамолиддинова Д. Бадиий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Фарғона, 2021. – Б. 49-50.
4. Маҳмудов Н. Фан тили ва тил фани // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013. – № 5. – Б. 5.

⁷ Маҳмудов Н. Фан тили ва тил фани // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013. – № 5. – Б. 5.